



HARBIY TA'LIMNING DAVLATNING QUDRATI VA TARAQQIYOTIGA TA'SIRI: OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI MISOLIDA

Matquliyev J.D.

Mayor, Chirchiq OTQMBY Saf bo'limi katta ofitseri

Annotatsiya: Maqolada harbiy ta'lim sohasi, uning bugungi kunda hayotimizdagi o'rni va Chirchiq Oliy Tank Qo'mondonlik Muhandislik bilim yurtining davlatimiz mudofaa tizimiga qo'shayotgan ulkan hissasiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, kadr, harbiy kadr, davlat, siyosiy institut, mudofaa, CHOTQMBYU, harbiy ta'lim, ta'lim, geopolitika, geosiyosat.

Abstract: The article focuses on the field of military education, its place in our lives today, and the great contribution of the Chirchik High Tank Command Engineering Educational Institution to the defense system of our country.

Key words: Human capital, personnel, military personnel, state, political institution, defense, СННТСЕЕИ, military education, education, geopolitics.

Аннотация: В статье уделено внимание на военную образовательную сферу и ее место сегодня, рассказывается о лепте Чирчикского высшего танкового командного инженерного училища в систему обороны страны.

Ключевые слова: капитал человека, кадр, военный кадр, государство, политический институт, оборона, ЧВТКИУ, военное образование, образование, геополитика.

Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda ona Vatanni, milliy mustaqillikni va mamlakat hududiy yaxlitligini ishonchli himoya qilish, yurtning har bir qarich yerini, o'z xalqi, ota-onasi va farzandlarini ko'z qorachig'idek asrash, kerak bo'lsa shu



yo‘lda o‘z jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan harbiy xizmatchini voyaga yetkazish bugun mustaqil Vatanimiz olib borayotgan eng muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan qat’ii nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan, ko‘p bosqichli faoliyatdir.

Yashin tezligida shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har bir insondan yangilanish va davrga munosib tarzda o‘shishni talab etadi. Albatta o‘z o‘rnida ushbu o‘shish siyosiy institutlar orasida eng ahamiyatlisi bo‘lmish davlat uchun ham hayotiy zaruratga aylanadi. Davlatning eng katta boyligi hisoblangan Inson omili yoki boshqacha qilib aytganda Inson kapitali ushbu o‘shish va taraqqiyotni tezkorlik bilan qabul qilib, o‘zida akslantirishi lozimdir.

Shu o‘rinda o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi. Yuqoridagi hayotiy zaruratdan kelib chiqib, bugungi kunda davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb masala bu Inson kapitalini rivojlantirishmi?

Ha to‘g‘ri angladingiz! Eng dolzarb va ahamiyatlisi aynan shu. Negaki geosiyosiy maqsadlar birlamchi o‘ringa chiqayotgan, geopolitikada bir necha yillardan beri yashirin ravishda avj olgan strategik maqsad va qarashlar sekin- astalik ila bo‘y ko‘rsatayotgan bugungi xalqaro siyosiy maydon har qachongidanda sergak va har qachongidanda ziyrak kadrlarga bo‘lgan talabni oshirib bormoqda. Ular orasida ayniqsa Harbiy kadrlarning o‘rni alohida ajralib turadi.

Zero siyosatshunoslar o‘rtasida: “Sen uxlaganingda, dushman uyg‘oq bo‘ladi” degan gap bor [1]. Shunday ekan bizning oldimizda turgan eng muhim vazifa bu nafaqat ko‘zlari balki ong - shu’uri va qalbi, aql-idroki ham ochiq va teran bo‘lgan kursantlarni tarbiyalash bosh maqsadimizdir.

Endi maqolamizning asl mag‘ziga qaytsak ya’ni harbiy tizim va undagi ta’lim jarayonlari, Mudofaamizga xizmat qilayotgan Oliy Harbiy Ta’lim muassasalari



orasida bir asrlik dovondan kechib o'tib, o'z faoliyatida minglab vatanparvar, yetuk harbiy kadrlarni yetishtirib bergan, o'z bag'rida yuzlab polkovnik-u generallarni, mudofaa vazirlarini tarbiyalab xalq farovonligi-yurt tinchligi, mamlakat ravnaqi uchun beqiyos xissa qo'shib kelayotgan Chirchiq Oliy Tank Qo'mondonlik Muhandislik bilim yurtining bugungi kundagi faoliyatiga nazar solsak. Albatta maqolada keltirilgan ma'lumot va statistikalari dengizdan bir tomchi bo'ladi, ammo oz bo'lsada o'quvchilarda bilim yurti haqida tasavvur uyg'onishiga sabab bo'lsa ko'zlangan maqsadga yetgan hisoblanamiz.

Bilim yurti 1918-yil 16-noyabr kuni Nijniy Novgorod shahrida Qo'mondonlik tarkibidagi piyoda kursi sifatida tashkil etilgan. Insoniyat tarixidagi eng mudhish davr sifatida tarix sahifalaridan joy olgan Ikkinchi jahon urushining ko'langasi Sobiq sovet davlatiga chang sola boshlagach esa ushbu ta'lim muassasasi Chirchiq shahriga 1941-yilda ko'chirilgan. 1993- yil aprel oyida mustaqil O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti sifatida milliylashtirildi.

Bugungi kunda Chirchiq Oliy Tank Qo'mondonlik Muhandislik bilim yurti da 12 ta kafedra faoliyat yuritib, ularda 2 ta ta'lim yo'nalishida 8 ta mutaxassislik bo'yicha yuzlab kursantlar 4 va 5 yillik dasturlar orqali tahsil olmoqda va ularga 2020/2021 o'quv yilidan boshlab diplomlar "Bakalavr" maqomida berilmoqda.

Bularning barchasi bilim yurti salohiyati nafaqat mamlakatimizda balki mintaqada ham naqadar yuqori baholanayotganini ko'rsatmoqda. Oliy Harbiy Ta'lim muassasasida bo'lajak harbiy kadrlarga berilayotgan harbiy ta'limning sifati, chuqur bilim va e'tibor samarasidir.

O'z- o'zidan ma'lumki MDH mamlakatlari orasida harbiy salohiyatining yuksakligi va qurolli kuchlar tizimi qudrati bo'yicha 2- o'rinda turuvchi, bir nechta bor "Xalqaro Armiya" o'yinlarida g'oliblik shohsupasida zafar quchgan, o'ziga xos rekordlar muallifi hisoblangan bizning mamlakat Armiyasida ayni ushbu bilim yurti



kabi Oliy Harbiy Ta'lim muassasalarining salmoqli ulushi va o'rnini qayd qilmaslik aslo mumkin emas.

O'zni kelganda eslash lozimki diyorumizda harbiy tizim va unga bo'lgan yuqori e'tibor ming yillik tarixga egadir. Muhtaram prezidentimiz bugungi kunda vatanparvar, yetuk harbiy kadrlarni tarbiyalashda buyuk tariximizga alohida e'ribor berish lozimligini qayd qilib shunday degan edilar: "Harbiy xizmat jarayonida har bir yosh askar bilan alohida ish olib borishimiz, ularni avvalo, Jalolliddin Manguberdi va Amir Temur kabi buyuk, jasur ajdodlarimizni munosib vorislari, ona Vatanni haqiqiy himoyachilari etib tarbiyalashimiz darkordir" [2].

Biz kursantlarga ta'lim berish jarayonlarida ularga o'zligi, tarixi, ajdodlari kimligini anglatgan holda, ulug' ajdodlariga munosib voris bo'lishlariga ko'mak berishimiz zarurdir. Zero, tarixi va o'zligini qadrlagan yurtning kelajagi albatta buyuk bo'ladi, ushbu davlat va jamiyatda hamisha tinchlik, osoyishtalik va adolat hukm suradi. Buyuk Sohibqiron ham davlat ishlarini yuritishda hamisha ilm-fan bilan bir qatorda harbiy tizimga o'zgacha e'tibor qaratganlar.

Buni ularning ushbu so'zlaridan ham bilsak bo'ladi: "Cherik" (qo'shin, harbiy tuzilma) navkar olmakda uch qoidaga amal qildim:

- birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga;
- ikkinchidan, qilichning o'ynata olishiga;
- uchinchidan, aql-zakovatiyu kamolotiga.

Shu uch fazilat jamuljam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negaki, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotini bartaraf etmog'i mumkin" [3]. Albatta bugun bizning bilim yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha yangilik va islohotlar tag zamirida ham ayni mana shunday yetuk harbiy kadrlarni tarbiyalab berish masalasi turibdi. Shu o'rinda yana bir bor statistik ma'lumotlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. 2020-yilda ilmiy darajaga va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 10 ta



bo'lgan bo'lsa bugungi kunda ularning soni 59 tani, mustaqil izlanuvchilar soni ushbu davrlarga mos ravishda 25 tadan 60 taga, ilmiy salohiyat esa 1,3% dan 2023-yilda 28,6% gacha ko'tarilganligi ta'lim sifati va uning samaradorligini oshishiga xizmat qilishi muqarrar.

“Temur Tuzuklari” da o‘z davrida Amir Temur saltanatining asosini o‘n ikki toifadan iborat insonlar tashkil etishi qayd qilinib, unda beshinchi bo‘lib tilga olinadigan sipoh esa mamlakat tikligining, mavjudligining asoslaridan biri ekanligi alohida keltirib o‘tilgandir. Har bir O‘zbekiston fuqarosining Konstitutsiyaviy burchi hisoblanmish davlat mudofaasi uchun harbiy xizmatni o‘tash masalasi Yangi Konstitutsiyamizda 9- bob 64- moddada ham o‘z aksini topgan. Fuqarolarda vatanparvarlik ruhini yanada kamol toptirish uchun tarixiy buyuk siymolarga qaratilgan e’tibor bugun har qachongidandanda yuksalmoqda. Bitta misol qilib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ham to‘xtalib o‘tib shunday degan edilar: “..Biz bugun ochilayotgan yodgorlik majmuasi loyihasi ustida juda ko‘p ishladik . Ziyolilarimiz, keng jamoatchilikning fikr-mulohazalari va takliflarini o‘rgandik. Bo‘yi 25 metr bo‘lgan ushbu mahobatli haykalda Sulton Jaloliddinning qat’iyatli, mag‘rur siymosida kelajakka katta ishonch va shiddat bilan intilayotgan xalqimizning vatanparvarligi, bukilmaz o‘z ifodasini topgan.

Haykal oldida Jaloliddin Manguberdi bitiktoshining nusxasi o‘rnatildi...” [2] Alohida qayd qilish lozimki yuqoridagi singari bizning bilim yurtimizda ham tashkil etilgan tarixiy siymolar hayoti va harbiy faoliyatiga bag‘ishlangan alohida sinfxonalar mavjud bo‘lib, ular kursantlardagi yurtga mehr va vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlashga hissa qo‘shib kelmoqda.

Maqolani xulosalashda yana Buyuk Sohibqiron Amir Temur hikmatlariga murojaat qilmoqchiman. Sohibqiron aytganiday “Davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir...” [3]. Chindan tinchlik va xavfsizligimiz garovi



bo‘lmish qudratli armiyamiz faoliyatiga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e‘tibor albatta bugun va kelajak hayotimizda davlatimiz tinchligining eng asosiy kafolatidir. Chunonchi buyuk nemis siyosatshunoslaridan biri aytganidek o‘z armiyasini moliyaviy ta‘minlamagan mamlakat, ertaga boshqa davlatnikini boqishga majbur bo‘ladi. So‘ngi yillarda mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan davlat dasturlarida mudofaa tizimiga berilayotgan alohida e‘tibor mamlakat ertasi va uning farovon kelajagi uchun xizmat qiladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma‘nan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta‘lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot startegiyasida alohida e‘tibor qaratilgan.

Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot startegiyasining 70-maqsadi ***Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish deb nomlanib unda quyidagi masalalar o‘rin olgan:***

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash.

Yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash.

Yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish.



Shuningdek, ushbu strategiyaning **VII-yo‘nalishi Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish deb nomlanib, ushbu yo‘nalishda Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish**, Barcha bo‘g‘indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo‘shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyev O‘. “O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari”. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi.-T.: 2014.y
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdu haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022. 30 – avgust, 177 - son, - B.1-2.
3. Temur tuzuklari-T.: “Hilol Media” nashriyoti, 2019. -145 b.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2023. 80 -b.
5. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60. <https://lex.uz.28.01.2022>. -1-20-21-22 b.